

TILSHUNOSLIKDA GENDER TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI

Gulxumor YUSUPOVA

O'qituvchi

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

Urganch davlat universiteti

Urganch, O'zbekiston

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ЛИНГВИСТИКЕ

Гульхумор ЮСУПОВА

Преподаватель

Кафедра теории и практики перевода

Ургенчский государственный университет

Ургенч, Узбекистан

THEORETICAL FOUNDATIONS OF GENDER RESEARCH IN LINGUISTICS

Gulxumor YUSUPOVA

Teacher

Department of Theory and Practice of Translation

Urgench State University

Urgench, Uzbekistan

UDC (UO'K, УДК): 81'44, 81-115

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Yusupova G. Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 2 (49). — B. 18-37.

<https://doi.org/10.36078/1683267865>

Received: February 11, 2023

Accepted: April 17, 2023

Published: April 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Mazkur maqolaning maqsadi gender tushunchasining fanga kiritilishi va uning ma'no mazmunini nazariy jihatdan ochib berish va lingvistik genderologiya fanining rivojlanish tarixi va metodologiyasi haqida batafsil nazariy ma'lumotlarni keltirishdir. Maqolada gender tilshunoslikning rivojlanish bosqichlari davrlarga bo'lingan. Gender tilshunoslik nimani tadqiq qiladi va qanday savollarga javob izlaydi kabi savollarga javoblar maqolada bayon qilingan. Bundan tashqari, o'zbek, nemis, ingliz, rus gender tilshunoslari va sotsiologlarining gender bo'yicha qilgan tadqiqotlari mazkur maqolada keng muhokama qilingan va yoritib berilgan. Maqolada, asosan, nazariy ma'lumotlar keltirilgan va shu bilan birga genderga oid hozirda aktiv qo'llaniluvchi o'zbek va nemis tillaridagi leksik birliklar va turg'un birikmalar tanlab olindi va tahlil qilindi. Natijada ko'plab genderga oid grammatik va leksik farqlar va o'xshashliklar aniqlandi.

Kalit so'zlar: gender; sotsiolingvistika; lingvistik genderologiya; ayollar harakati; ayol tili; erkak tili; submadaniyat; gender-pause.

Аннотация. Целью данной статьи является раскрытие понятия гендер, а также предоставление подробных теоретических сведений об истории и методологии развития лингвистической гендерологии. В данной статье этапы развития гендерной лингвистики разделены на периоды, даны ответы на такие вопросы, как: что исследует гендерная лингвистика и на какие вопросы она стремится ответить. В статье также широко обсуждаются исследования узбекских, немецких, английских и русских лингвистов и социологов по вопросам гендера. В статье в основном представлена теоретическая информация и были отобраны и проанализированы действующие в настоящее время

узбекские и немецкие лексические единицы и фразеология, относящиеся к роду.

Ключевые слова: гендер; социолингвистика; лингвогендерология; женское движение; женский язык; мужской язык; субкультура; гендер-пауза.

Abstract. The article aims to provide theoretical information about the history and methodology of the development of linguistic genderology in different periods. The researches of Uzbek, German, English, Russian linguists and sociologists on gender are widely discussed and highlighted in this article. In addition, the article presents an analysis of gender marked Uzbek and German lexical and phraseological units.

Keywords: gender; sociolinguistics; linguistic genderology; women's movement; female language; male language; subculture; gender-pause.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda professional muloqotning gender jihatini, tilning xarakteristik xususiyatlari va undagi jinsning namoyon bo'lishi o'rtasidagi munosabatni o'rganish istiqbolli vazifalardan biridir. Jins u yoki bu yo'llar bilan inson haqidagi barcha fanlarni ko'rib chiqadigan va o'rganadigan universal hodisalardan biridir. Jins tushunchasiga shu vaqtgacha tilshunoslikda katta e'tibor qaratilmagan bo'lsa, so'nggi paytlarda tadqiq qilinayotgan ilmiy ishlar erkak va ayol xulq-atvorining nazariy modelini yaratish uchun boy asos yaratmoqda. Shunga qaramasdan, ko'pgina masalalar hali ham munozarali bo'lib qolmoqda va qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

“Gender” termini fanda, ayniqsa, O'zbekistonda yangi tushunchadir. Hozirgi vaqtda ushbu atama turli bilim sohalarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Xususan, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik va hatto tilshunoslikda ham faol qo'llanilmoqda. “Gender” atamasining paydo bo'lishiga turli sohalaridagi yutuqlar yordam berdi. Gender tilshunoslik yaqinda paydo bo'lgan, ammo faol rivojlanayotgan va yangi tadqiqot muammolarini topayotgan zamonaviy tilshunoslikning bir tarmog'idir. Gumanitar fanlarning barcha sohalarida bilimlarning antropotsentrikligiga va individual shaxs parametrlariga bo'lgan qiziqishning ortishi, gender va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari lingvistik genderologiyani shakllanishiga asos bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 2-sentyabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari” to'g'risidagi qonuni mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligimizda “gender” tushunchasiga ta'rif berilgan. Qonun 32-moddadan iborat bo'lib, 3-moddada gender so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: **gender** — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir (27). Yurtimizda gender tenglik masalalari davlat

siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, tilda gender muammosini o'rganish, uning tushunchalari va yo'nalishlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish va yangi nuqtayi nazarlarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurdir.

Asosiy qism. "Gender" termini ingliz tiliga lotin tilidan o'tgan. Ingliz tilida gender so'zi, dastlab, grammatik jins ma'nosini bildirgan. Ilk bor biologik va ijtimoiy jinsni farqlash g'oyasi amerikalik antropolog Margaret Mead tomonidan 1935-yilda "*Sex and Temperament in Three Primitive Societies*" kitobida ilgari surilgan (14, 9). Margaret Mead jinsdagi madaniy farqlarni o'rgangan birinchi antropologlardan edi. Yangi Gvineyada u uchta qabilani topdi — **Arapesh, Mundugumor** va **Tchambuli**. Bu qabilalarda jins rollari keskin bir-biridan farq qilardi.

Arapeshda ikkala jins vakillari ham muloyim va tarbiyali edilar. Ayollar ham, erkaklar ham o'z farzandlariga mehribon va ular bilan ko'p vaqt o'tkazardilar va ikkala jins vakillari ham onalik xatti-harakatlarini namoyish qilardilar. Arapeshda har xil gender rollar mavjud emas edi va har ikkala jinsning ham xatti-harakatlari hozirgi kundagi odatiy ayol jinsi roliga mos kelardi.

Mundugumorlarda esa vaziyat teskari edi. Bu qabilaning erkaklari ham, ayollari ham shiddatli, raqobatbardosh va zo'ravon edilar. Ikkala jins vakillariga ham bolalar deyarli yoqmasdi va ko'pincha ularni jismonan jazolashardi. Mundugumor jamiyatida ham har xil gender rollari mavjud emas edi, chunki ikkala jins ham odatda erkak jinsi roliga mos keladigan amallar bajarardi.

Margaret Mead nihoyat turli jinslar rollari mavjud bo'lgan qabilani topdi. Bu *tchambuli* deb ataluvchi qabila edi. Bu jamiyatda bir jins vakillari yetakchi, hukmron, qat'iyatli bo'lib, qabilaviy ishlarda asosiy vazifani bajarishardi. Boshqa jinsga tegishlilar esa turlicha kiyinishni, bo'yanishni va hatto ko'p kulishni yaxshi ko'rardi. Ikki xil jins vakillari va ikki xil vazifalar. Odatdagi jamiyat a'zolariga o'xshash bo'lsa ham, ammo hayratlanarlisi bu qabilada ayollar dominant va qabilada yetakchilik qilishardi, erkaklar bo'lsa ularga bo'ysunuvchi edilar. Margaret Mead o'z kuzatishlaridan xulosa qilib, jinslar orasida madaniy va ijtimoiy farqlar mavjudligini aniqladi (23).

"Gender" tushunchasi 1970-yillarning boshlarida feministik harakat va feministik nazariyaning rivojlanishi tufayli keng tarqaldi. Gender ijtimoiy psixologiyaning bir yo'nalishidir. Genderni insonning ijtimoiy jinsi deb qarash mumkin. Erkaklik va ayollik insonning biologik jinsi bo'lsa, gender ijtimoiy jins bo'lib, erkak va ayolning jamiyatdagi roli, o'rni, tili va huquqlarini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, gender bu jamiyat tomonidan modellashtirilgan va qo'llab-quvvatlanadigan erkaklar va ayollarning xatti-harakatlari, turmush tarzi va fikrlash tarzi, ayollar va erkaklarning ijtimoiylashuv jarayonida shaxs sifatida egallagan rollari va munosabatlari tizimidir.

Gender juda murakkab tushunchadir, chunki u hodisaning xilma-xil mazmunini ochib beradi. Ilmiy adabiyotlarda u bir nechta ma'nolarda qo'llaniladi. Gender tushunchasiga tadqiqotchilar

tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Biz ushbu tadqiqot ishimizda "jins" va "gender" tushunchalariga quyidagicha ta'rif berdik:

Jins (sex)	Gender
ayol va erkak organizmlari o'rtasidagi biologik, anatomik, fiziologik farqlarga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha.	erkaklar va ayollar o'rtasidagi xulq-atvor, madaniy, psixologik va boshqa ijtimoiy-madaniy jihatdan aniqlangan farqlarni shakllantiradigan ijtimoiy jins.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ayol va erkak orasidagi muhim biologik farq nasl qoldirishdagi rolidir. A. A. Denisova biologik nuqtayi nazardan erkak va ayollar orasida tafovutdan ko'ra o'xshashlik ko'proq ekanligini ta'kidlaydi. Olimaning fikriga ko'ra, biologik jins turli jamiyatda yashab, turli ijtimoiy rolga mansub bo'lgan insonlarni farqlashga sabab bo'la olmaydi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda odamlarning biologik jinsidan kelib chiqqan holda, ularning ijtimoiy va madaniy normalari yig'indisini belgilovchi omil asosida gender tushunchasi vujudga kelgan (15, 108).

"Gender" tushunchasi fanga erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik tabiiy farqlardan tashqari ularning xatti-harakati, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun kiritilgan. Fandagi yangi kashfiyotlar va ularni nazariy jihatdan anglash tadqiqotchilarni shunday xulosaga olib keldiki, jins (sex) bu — biologik xususiyatlarning birligi bo'lib, individni muayyan biologik jinsga tegishli deb bilishdir. "Gender" tushunchasining fanga kiritilishi umumiy ma'noda ikki tushuncha biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Rus gendertilshunosi A. V. Kirilina genderga quyidagicha ta'rif bergan va bizning fikrimizcha, ushbu tarif gender tushunchasi mohiyatini to'liq ochib bergan:

Zamonaviy ma'noda, gender individual biologiyaning natijasi yoki u yoki bu turdagi shaxs bo'lishga moyillik emas. Aytishimiz mumkinki, bu umuman individual xususiyat emas, balki har bir inson bir qismi bo'lgan jamiyat tomonidan o'rnatilgan tartibdir. Gender shaxsni ma'lum bir tarixiy bosqichda ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan erkaklik yoki ayollikning ijtimoiy va madaniy jihatdan aniqlangan modeliga "singdirish" jarayonini ham, natijasini ham aks ettiradi. Shunday qilib, konseptual nuqtayi nazardan, gender "jinsning tabiiy dominantini emas, balki ijtimoiy-madaniylik"ni ta'kidlaydi (17, 27).

Gender ko'pchilik sohalarning tadqiqot manbayi bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, tilshunoslikda bu hodisa zamonaviy lingvistikaning sotsiolingvistika (sotsialtilshunoslik) bo'limining bir qismi bo'lgan gender tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyektidir.

Zamonaviy tilshunoslikni kognitiv tilshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, matn tilshunosligi, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, korpuslingvistika, pragmalolingvistika,

paralingvistika, etnolingvistika, gender tilshunoslik kabi bir qancha yangi yo‘nalishlar tashkil qiladi.

Sotsiolingvistika ba’zi adabiyotlarda kommunikativ tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida keltirilsa, ayrim adabiyotlarda mustaqil tilshunoslik bo‘limi deb qayd qilingan. Sotsiolingvistika (lot. societas -jamiyat va lingvistika) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolar majmuini o‘rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi (25).

Britaniyalik olim, sotsiologiya va feministik nazariya sohasidagi taniqli mutaxassis R. Gill o‘zining “*Gender and The Media*” (Gender va Media) asarida shunday yozadi: “Biz qatlamlarga bo‘lingan dunyoda yashayapmiz. Ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, etnik kelib chiqishi, sinfi, yoshi, jismoniy qobiliyati, jinsi, yashash joyi va bu toifalar o‘rtasida imtiyozlar va qiyinchiliklar tengsiz taqsimlangan” (4, 7).

Shunday qilib, sotsiolingvistlar so‘zlovchining nutq xatti-harakati vaqtga, muhitga, vaziyatga (masalan, stress paytida) qarab qanday o‘zgarishi va turli jins, yosh, ijtimoiy va irqiy mansublikdagi so‘zlovchilarning nutqi qanday farqlanishi bilan qiziqadi. Sotsiolingvist-genderologlarning asosiy tadqiqot obyekti — insonning biologik va ijtimoiy jinsi uni qanday aks ettirishi va jamiyatning boshqa a’zolari bilan muloqotiga qay darajada ta’sir qilishidir.

Amerikalik tadqiqotchi J. Koutsning ta’kidlashicha, gender tadqiqotlari bilan shug‘ullanadigan sotsiolingvistlar erkaklar va ayollarning nutqini submadaniyat¹ sifatida ularga xos belgilar bilan tavsiflangan maxsus ijtimoiy guruhlar sifatida qabul qiladilar (2, 48).

Gender tilshunoslik ba’zi adabiyotlarda gender lingvistika, lingvistik genderologiya nomlari bilan ham yuritiladi (biz mazkur maqolada har uchala nomni sinonim sifatida qo‘lladik) va bu atamalar bir xil ma’noni anglatib sinonim sifatida qo‘llaniladi. Gender lingvistikaning shakllanishi XX asrning so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi. Ijtimoiy-madaniy munosabatlar erkak va ayolning jamiyatdagi maqomini belgilab beradi. So‘nggi yillarda tilshunoslikda “ayol” va “erkak” konseptlari o‘rganilmoqda va turli tillarda ularning tarkibi ham bir xil emas. Turli xil madaniy jamiyatda yashovchilarning erkak va ayol haqidagi qarashlari ham bir-biridan farq qiladi. Shu tariqa tilshunoslikda genderni o‘rganish boshlangan. 1960-yildan boshlab “Gender” tushunchasi fanda ayollar va erkaklarga xos bo‘lgan ijtimoiy tushuncha sifatida qo‘llaniladi. Bu termin fanda ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. Shunga qaramasdan gender tilda ayol

¹ Submadaniyat (lot. sub - atrofida, ostida va madaniyat) — muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta’sir qiluvchi ijtimoiy psixologik belgilar (norma, qadriyat, steriotip, did) majmuasi. Submadaniyat — har bir ijtimoiy guruh va avlodga xos bo‘lgan, jamiyatdagi hukmron madaniyatdan farqlanuvchi madaniy olam (masalan, yoshlar submadaniyati, milliy guruhlar, qariyalar, jinoiy guruhlar submadaniyati va x.k.). Submadaniyat hukmron madaniyatdan tili, kiyinishi, odatlari va boshqa jihatlari bilan farqlanadi. Yolg‘iz odamlar, sportchilar, tilanchilar, o‘g‘rilar, kar-soqovlar va boshqalar o‘z madaniyatiga egadirlar.

va erkakka xos bo'lgan xususiyatlar o'rtadagi farqlarni ifodalaydi. Gender tilshunoslikni tadqiq qilish uchun asosan 5 ta savol muhimdir:

Gender tilshunoslik fani qanday paydo bo'lgan? va uning rivojlanishiga qanday omillar xizmat qilgan? kabi savollar ko'pchilik yosh olimlarni qiziqtirishi tabiiy. Bu savollarga javob berish uchun tarixga nazar solish kerak. Gender lingvistikani qanday vujudga kelganligini yaxshiroq tushuna olish uchun, avvalo, nega tilshunoslikda gender tadqiq qilinayotganligini anglash muhimdir. Gender lingvistikaning rivojlanib to hozirgi holatiga yetib kelishida ayollar harakatining roli katta. Germaniyadagi ayollar harakati ikki

1. Muayyan tildan foydalanishda erkaklar va ayollarning ijtimoiy rollari o'rtasida bog'liqlik bormi?
2. Erkaklar va ayollar o'ziga xos tilni boshqacha ishlatishadimi? Bunda til tuzilishi, qo'llanilishi va leksikasi nazarda tutiladi.
3. Tilda erkak va ayol qanday tasvirlanadi?
4. Madaniyatlararo farq tilda jinslar o'rtasidagi farqlarni aks ettiradimi?
5. Turg'un birikmalarda jinslar orasidagi farqlar qanday namoyon bo'ladi?

bosqichga ajraladi. Birinchi davr 1848-yildan to 1933-yilgacha davom etgan. Bu davr "*Oldingi ayollar harakati*" (yoki "*Birinchi ayollar harakati*") nomini olgan. Bunda ayollar o'zlarining teng huquqliligi uchun kurashishgan. Ayollar o'zlarining ekologik, siyosiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini talab qilishgan. Keyingi harakat tarixda "*Ayollarning yangi harakati*" nomini oldi. Ayollarning ikkinchi harakati 1968-yilda bo'lgan. Ayollar qo'zg'aloni natijasida bir qancha ayollar tashkiloti tuzildi hamda erkaklar va ayollar tiliga alohida e'tibor qaratila boshlandi (10, 39).

Ayollar qo'zg'aloni vujudga kelishining bir qancha sabablari bor. Muhim sabablaridan biri, jinslarning bir xil baholanmaganligida va baholanmayotganligida edi. Lekin bu narsa demokratik davlatlar qonunlarida muhrlab qo'yilgan edi. Insonlar qaysi jinsidan, dindan va etnik kelib chiqishidan qat'i nazar teng edilar, lekin bunga amal qilinmagan. Ayollar qo'zg'alonigacha bo'lgan davrda 0 sotsolingvistikaning bir yo'nalishi sifatida shakllandi. Feministik tilshunoslik vakillari o'zlarining asosiy maqsadini tildagi patriarxal ongni tanqid qilish va tilda ayol qiyofasining pastligini va til va nutqda mavjud bo'lgan jinsiy kamsitilishni bartaraf etishga qaratilgan til islohotlarini amalga oshirishda ko'rishadi. Ushbu tadqiqotlarning falsafiy asosini postmodern falsafa tashkil etadi, unga ko'ra til nafaqat bizning dunyoni tushunishimizga ta'sir qiladi, balki uni shakllantiradi. Binobarin, tildagi gender tengsizligini tuzatish orqali ayollarning jamiyatdagi mavqesiga bevosita ta'sir ko'rsatish mumkin. Gender tilshunoslik va feministik tilshunoslik bitta fanning bir-birini to'ldiruvchi ikkita sohasidir.

Tilshunoslikda tilning jins kategoriyasini o'rganish asosan g'arb davlatlarida boshlangan. Biz mazkur tadqiqot ishimizda lingvistik

genderologiyaning fan sifatida shakllanishini quyidagicha davrlarga bo'lishni taklif qildik.

1-davr: lingvistik genderologiyaning shakllanishi uchun poydevor bo'lgan davr. Bu davr namoyondalari F. Maunter, O. Yaspersen, E. Sepir, U. Labov, M. Key. Bu tilshunoslar tilni jins bilan bog'lab u yoki bu sohada lingvistik tadqiqot olib borishgan, lekin bu davrda gender tilshunoslik hali fan sifatida shakllanmagan edi.
2-davr: gender tilshunoslikning shakllangan davri. Gender tilshunoslikning rivojlanishidagi ikkinchi davrning boshlanishini tilshunos R. Lakkof nomi bilan bog'lash mumkin. Bu davr 1973-yildan 2000-yilgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Ushbu davrning mashhur gender tilshunoslari R. Lakkof, E. Aries, L. Push, D. Tannen, S.Tromel-Plotz, M. Wex, D. Spender, J. Butler, J. Coats, E. Goffman, O.A. Voronina, E.I. Goroshko, A.V. Kirilina, M. Fuko, I.I. Xaleeva, shu davrdan boshlab fanda lingvistik genderologiya alohida soha sifatida o'rganila boshladi.
3-davr: 2000-yildan to hozirgi kungacha gender tilshunoslik ustida ilmiy izlanishlar olib borilayotgan davr. Bu davr tilda gender tadqiqotlarining turli paradigmalarda olib borilishi tez sur'atlar bilan rivojlanib, ko'plab gender tilshunos mutaxassislar yetishib chiqqanligi bilan xarakterlanadi. Quyidagi gender tilshunoslarni ushbu davrga kiritdik: L.Hornscheidt, Z.V. Shevchenko, M.V. Tomskeya, I. Savkina, E.I. Trofimova, A. Flippinova, M.N. Garanovich, T.N. Zaxarova, L.N. Maslova, A.A. Morozova, G.I. Ergasheva, N.Z. Nasrullaeva, M.A. Abduvaxabova, Sh.Q. Gulyamova va boshqalar.

Gender lingvistika XX asrning so'nggi yillarida sotsiolingvistikaning bir yo'nalishi sifatida rivojlangan bo'lsa-da, lekin til va jins o'rtasidagi munosabatlar g'oyasining rivojlanishi ancha oldin boshlangan. Tildagi biologik jins omili birinchi marta antik davr tadqiqotchilarini, xususan, Platon va Aristotelni qiziqtirdi. Ular tilda jinsning mavjudligi tabiatda ikki jinsning mavjudligi oqibatidir degan xulosaga kelishgan (12, 23). Gender toifasining nolingvistik motivatsiyasini aniqlashga urinayotganda, antik davr tadqiqotchilari o'zlarining nolisoniy tajribalaridan foydalanganlar, ular gender toifasi uchun konnotativ baholarni yaratishgan. Unga ko'ra, *mujskoy rodga* tegishli otlar uchun kuch, faollik va energiya, *jenskiy rod* otlariga zaiflik va bo'ysunish kabi belgilar kirgan.

Sof "ayollar tili" ma'nosida alohida ayol suhbat uslubi mavjudligi haqidagi g'oya nisbatan qadimgi va dastlab antropologik, etnologik tadqiqotlardan kelib chiqqan. XVII asrda Karib dengizi bo'ylab sayohatchilarning hisobotlari birinchi marta nashr etildi, unda faqat ayollar gapiradigan tillar haqida gap bordi. Ulrike Gressel o'zining 1991-yilda nashr qilingan "Sprachverhalten und Geschlecht" asarida ayollar va erkaklarning bir-biridan farq qiluvchi tilda gaplashishi haqidagi dastlabki tadqiqotlar 1664-yilda boshlanganligini keltirgan. U. Gresselning yozishicha, Raymond

Bretonning 1665-yilda “*Dictionnaire Caraïbe-français*” lugʻati Parij shahrida nashr qilindi. Lugʻatda Karib dengizi mahalliy aholisi ishlatadigan va fransuzcha soʻzlar ayollar ishlatadigan soʻzlar hamda erkaklar ishlatadigan soʻzlar kabi koʻrinishda berilgan edi. Ular gaplashadigan til bir xil til edi, faqat shu tilni ishlatishda farqlar mavjud boʻlgan (1, 5).

Ayollar tili tadqiqi bilan shugʻullangan dastlabki tadqiqotchilar avstriyalik nemis faylasufi, tanqidchisi va jurnalisti Fris Maunter va daniyalik tilshunos Otto Yaspersendir.

F. Maunter oʻz kuzatishlarida tildagi mavjud gender tafovutlar erkak va ayollar nutqiy faoliyatida ajralib turuvchi bir qator jihatlariga bogʻliqligini antik teatr anʼanalariga bogʻlab talqin qiladi. Tarixdan maʼlumki, ilgari antik teatrlarda ayollar roli erkaklar tomonidan ijro etilgan va shu tariqa oʻziga xos boʻlgan “erkaklar tili” va “ayollar tili” yuzaga kelgan. Keyinchalik esa ayollar tilining oʻziga xosligi teatrdan tashqarida, turli jamoat joylarida sezila boshlagan. Turli ijtimoiy guruhlardagi erkak va ayol nutqiy xulq-atvorini oʻrgangan F. Mautnerning xizmati shuki, u tildagi gender oʻzgaruvchanligini ijtimoiy sabablar bilan bogʻlagan va u erkaklar hamda ayollarning soʻzlashuvdagi farqlarini taʼlim va maqom kabi ijtimoiy masalalarda koʻradi. Faylasuf taʼkidlaganidek, erkaklar va ayollar oʻrtasidagi til farqlari teng boʻlmagan taʼlim va hayot tajribasida namoyon boʻladi. Uning soʻzlariga koʻra, ayollar kam maʼlumotli va kam oʻqiganlari uchun erkaklarnikiga qaraganda boshqa tildan foydalanishadi. Biroq ishchilar sinfida bu farq deyarli yoʻq, chunki bu yerda jinslar orasidagi lisoniy farqlar sezilmaydi. Yagona farq shundaki, ayollar aniq gapiradi, erkaklar esa noaniq va odobsiz gapirishadi. Olimning fikricha, ayollar erkaklar tilini oʻrgana olmaydilar. F. Maunter nemis tiliga asoslanib, tildagi farqlar jinsga bogʻliq emas, balki gender, yaʼni ijtimoiy va tarixiy parametrlarga bogʻliq, degan fikrni ilgari surgan. Lekin uning bu qarashlari ehtimol tarixiy teatrn misol qilib koʻrsatganligi tufaylimi, balki bu shunchaki odatiy holdek koʻringani uchunmi oʻz izdoshlarini topa olmadi. Bizning fikrimizcha, agar F. Maunter tarixiy va psixologik jihatlarni bogʻlab, tillar oʻrtasidagi farqni tarixan shakllangan, anʼanani hisobga olgan holda tilning ayol versiyasi kamsitilgan til deb izohlaganda, uning gʻoyasi eʼtibordan chetda qolmagan boʻlar edi.

Genderni tilshunoslik bilan bogʻlagan yana bir olim daniyalik tilshunos Yens Otto Yaspersen edi. Olim 1925-yilda ayollar tili va erkaklar tili oʻrtasidagi farqlarni “*Language: Its Nature, Development and Origin*” (Til: uning tabiiyati, rivojlanishi va yaralishi) nomli kitobida batafsil yoritib berdi. Kitobda tilning jamiyatdagi roli, til tarixi, bolalar tili, chet tilining taʼsiri haqida batafsil yoritgan va shu bilan birga kitobning butun bir bobi ayollar va erkaklar tili oʻrtasidagi farqlarga bagʻishlangan. Olim ikki jins tili orasidagi farqlarni fonetik jihatdan koʻrsata olmagan boʻlsa ham, soʻz boyligi, soʻz tanlashdagi jinslararo farqlarni bir semestr davomida 25 ta talaba (qiz va oʻgʻil bolalar) bilan oʻtkazgan bir qator tajribalari bilan asoslab bergan. Tajribaga koʻra, talabalardan imkon qadar tezroq 100 ta soʻz yozib

berish talab qilindi. Natija shuni ko'rsatdiki, erkaklar tabiat va hayvonot olamiga oid so'zlarni yozishga moyil bo'lgan, ayollar esa, asosan, mato turlari va kiyim-kechak sohasidagi so'zlarni tanlaganlar. Yespersen buning sabablarini jinsga xos sotsializatsiyada ko'radi, bu, albatta, ayollar va erkaklarning sohalari va manfaatlari aniq ajratilgan davr uchun mantiqiy natijadir (7, 228). Tilshunos tilning ayollar tomonidan qo'llanishiga ko'pincha salbiy baho berilgan. Yaspersen ta'kidlashicha, ayollarning bo'rttirishga moyilligi tufayli ular ko'proq kuchaytiruvchi so'zlardan foydalanishadi va sintaksisga kelsak, ayollar ko'pincha jummalarni tugatmasliklarini ta'kidlaydi, uning fikricha, bu nomukammal fikrlashdan kelib chiqadi: chunki ular o'zlari xohlagan narsani o'ylamasdan gapira boshlaydilar (7, 234).

F. Mauther ham, O. Yespersen ham ayollarning tili mustaqil til emas, balki erkaklar tilining pastki modifikatsiyasi degan fikrda bo'lishgan. Ular farq gipotezasining asosiy vakillari hisoblanadi. Farq gipotezasiga ko'ra, ayol tili erkak tilining varianti sifatida qaraladi va bu tilni yanada rivojlantirmasdan, balki ayollar o'z tillarini o'zlari rivojlantirishlari kerak. Erkak tiliga taqlid qilish qat'iyon rad etiladi.

Amerikalik lingvist va antropolog "dunyodagi barcha tillar bir xil estetika va murakkablikka ega" degan g'oyani ilgari surgan E. Sepir ham ayol va erkak nutqida farqlarni tadqiq qilgan. U "Male and Female Speech in Yama" (Yamada erkak va ayol nutqi, 1929) asarida ayol va erkak nutqidagi farqli jihatlarni yoritib bergan (11).

1960-yillarda amerikalik tilshunos Uilyam Labov birinchilardan bo'lib tilshunoslik nuqtayi nazaridan jins bilan shug'ullangan, ko'plab lingvistik asarlarning asosi bo'lgan nazariyani yaratdi. Olimning fikricha, erkaklar tilidan ko'ra ayollar tili odatda standart til sifatida qabul qilingan tilga yaqinroqdir. Keyinchalik, amerikalik Mary Ritchiy Key 1972-yilda va undan keyin 1973-yilda yana bir amerikalik tilshunos M. Keyning shogirdi Robin Lakkof ayollar tili haqidagi tezislari ommaga ma'lum bo'ldi (16, 49).

M. Key nutq xulq atvorini gender jihatini ham o'rgangan. Tilshunos ayollar tilini uzur so'rash tili, erkaklar tilini esa tushuntirish tili deb hisoblagan (8, 147).

Amerikalik tilshunos Robin Tolmach Laffof 1973-yil "*Language and Women's place*" (Til va unda ayollarning o'rni) asari (1975-yilda kitob sifatida nashr etilgan) sotsiolingvistika sohasiga ayollar tili haqidagi ko'plab g'oyalarni kiritdi. Asarda ingliz tilining andrsentrik tabiati ko'plab misollar bilan isbotlangan (9, 40-43).

R. Lakkof o'z asarida ayollar ishonchsizlik, zaiflik va haddan tashqari xushmuomalalik bilan ajralib turadigan tildan foydalanishlarini yozadi. Ayollar odatda jamiyat tomonidan o'rnatilgandek, ayollar sifatida o'zlarining bo'ysunuvchi rolga moslashish uchun itoatkor tarzda gapirishadi. Olima ayollar til uslubi erkaklarnikidan farq qilishining 10 ta farqini ta'kidlaydi. R. Lakkof "Language and Women's place" asarida ingliz tili misolida ayollar tilini erkaklar tilidan ayrim xususiyatlarga qarab farq qilishini quyidagi guruhlariga bo'lishni taklif qilgan birinchi tilshunos edi. Unga ko'ra, ayollar tili erkaklar tilidan quyidagilarga ko'ra farq qiladi:

1. Ayollar erkaklar ishlatmaydigan ma'lum bir lug'atdan foydalanadilar. Ularning nutqida quyidagi iboralar ko'p qo'llaniladi: *qandaydir, allaqanday, kabi tuyuladi*.

2. Ayollar nutqiga xos sifatlar: *"ajoyib", "hayratlanarli"*.

3. Muloqot jarayonida hamsuhbatiga yuqori hurmatning namoyon bo'lishi: *qarshi emasmi? agar so'rash ortiqcha bo'lmasa... mayli, agar...*. Ayollar nutqda ko'pincha *"rahmat", "iltimos", "uzr"* kabi so'zlar keng qo'llaniladi.

4. Nutq jarayonida iltifot yuzasidan ko'p kechirim so'rash: *Afsusdaman, lekin men o'ylagandimki..., kechirasiz, lekin menimcha...*

5. Ohista va sekin gapirish.

6. Vulgar so'zlarni ishlatishdan tiyilish. Lakkof fikricha, ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq evfemizmlardan foydalanadi va tabu so'zlarni ishlatishdan qochadi. Lakkof buning sababi sifatida jamiyatdagi ayolning tarbiyasini ko'rsatadi. Ayollardan *"xonimlardek"* bo'lish kutiladi. Kuchli his-tuyg'ularni tabu so'zlar bilan ifodalash jamiyat nazarida ayol kishiga yarashmaydi (6, 4).

7. Ayollar ko'proq so'roq gap shakllaridan keng foydalanadi: *...shunday emasmi?, ... emasmi?, ... to'g'rimi?*

8. Nutqda grammatik qoidalarni buzmasdan tog'ri gapirish va aniq talaffuz. Lakkof fikricha, ayollar buni o'zlarining *"past ijtimoiy mavqesini"* ko'proq ma'lumotli nutq bilan oshirish uchun qiladilar.

9. Bilvosita so'rovlar: *"voy, men juda chanqadim"* (*haqiqatan ham, men juda chanqaganman*) — aslida ichimlik so'rovi.

10. Ba'zi so'zlarni ta'kidlash uchun intonatsiyadan foydalanish va gap oxirida intonatsiyani ko'tarish. Lakkof ta'kidlashicha, ovozni ko'tarib so'zlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi so'roq qo'shimchalarida bo'lgani kabi, ovozni ko'tarish ham gapni savol tomon siljitadi va bu esa yana noaniqlik va kelishuv istagini aniq ko'rsatadi (22).

AQSHlik tilshunos Deborah Tannen ham gender lingvistika bilan shug'ullangan. Uning *"You Just Don't Understand"*, (Sen meni tushunmaysan) *"Gender and Discourse"* (Gender va diskurs) va *"Gender and Conversational Interaction"* (Gender va nutqning o'zaro ta'siri) kabi asarlarida erkaklar va ayollar foydalanadigan *"tillar"*dagi farq va muloqot jarayonida kuzatiladigan kamchiliklar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Til va gender tadqiqotlarining rivojlanishida yana bir amerikalik tadqiqotchi J. Koutsning *"Women, Men and Language"* (Ayollar, erkaklar va til), *"Women, Men and Everyday Talk"* (Ayollar, erkaklar va kundalik suhbat) monografiyalarini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Olim erkak va ayolning kundalik nutqidagi genderologik xususiyatlarni ochib berishga harakat qilgan. 1992-yilda amerikalik yozuvchi Jon Garyni mashhur qilgan *"Men Are from Mars, Women Are from"* (Erkaklar Marsdan, Ayollar Veneradan) kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitob jamiyatda erkak va ayolning farqlarini tushunish borasida katta ahamiyat kasb qiluvchi asardir. Muallif ushbu asarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi asosiy farq ularning psixologiyasidagi farq ekanligini ta'kidlaydi. U erkaklar va ayollar ikki xil tabiatga egaligini

ajoyib metafora orqali misol qilgan. Odamlar alohida sayyoralaridan; Marsdan erkaklar va Veneradan ayollar va har bir jins o'zining qulay "sayyora jamiyati"ga moslashtirilgan. Erkak va ayol muloqoti haqida ushbu kitobda ko'plab ma'lumotlar keltirilgan (3, 5).

Gender tilshunoslik AQSHdan tashqari Germaniyada ham rivojlandi. Germaniyada ayollar tili va ularning roli haqidagi dastlabki qarash 1974-yil germaniyalik tilshunos Ingrid Guentherodtning Trier universitetida ayollarning lingvistik xatti-harakatlari bo'yicha o'tkazgan seminaridan boshlangan. Olima ushbu seminarda ayollar tili haqida ma'ruzalar qilgan. U M. Key va R. Lakkofning ayollar tili haqidagi nazariyasidan ta'sirlangan holda o'z qarashlarini bayon qilgan. Keyinchalik, Senta Tromel-Plotz va Luisa Push Germaniyada ayollar tili tadqiqi bilan shug'ullanganlar. Professor va feminist bo'lgan Luisa Push, Marlis Hellinger va Tromel-Plotz nemis feministik tilshunosligi asoschilari sifatida talqin qilinadi. Olimalar 1979-yil 5-fevral kuni Konstanz universitetida talabalarga "Lingvistika va ayollar tili" (Linguistik und Frauensprache) mavzusida ma'ruzalar o'qishgan. Keyinchalik ular tomonidan feministik lingvistikani tadqiq qilish bo'yicha ishchi guruh tuzilgan. Ular nemis jamiyatidan feministik lingvistikani qo'llab-quvvatlaydigan va unga hayrixohlik bildiruvchi insonlarni to'plash maqsadida Germaniyaning Regensburg va Passau shaharlarida yig'ilish o'tkazishadi. Bu yig'ilishga nafaqat tilshunoslar, balki jamiyatning boshqa soha vakillari: jurnalistlar, yozuvchilar, o'qituvchilar, dinshunoslar, siyosatchilar va yuristlar ham kelishgan. Shuni alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim, yig'ilishga kelgan hamma jamiyat a'zolari ayollar edi (18, 19).

Nemis tilshunosligida til va jinsning o'rganilishida Tromel-Plotzning 1978-yil "Linguistische Berichte" (Lingvistik xabarlar) ilmiy jurnalida "Linguistik und Frauensprache" (Tilshunoslik va ayollar tili) maqolasi dastlabki tadqiqot sifatida talqin qilinadi. Feminist Senta Tromel Plotzga nemis zabon mamlakatlarda (Mutter der feministischen Linguistik) feministik tilshunoslikning onasi deya ta'rif beriladi. Uning bugungi kungacha til va jinsga oid "*Vatersprache-Mutterland*" (Ota til — ona vatan), "*Frauensprache: Sprache der Veränderung*" (Ayol tili: o'zgarish tili), "*Gewalt durch Sprache: die Vergewaltigung von Frauen in Gesprächen*" (Til orqali zo'rvonlik: suhbat jarayonida ayollarni bo'ysundirish), "*Frauengespräche: Sprache der Verständigung*" (Ayollar suhbat: tushunish tili) asarlari mashhurdir (24).

Yana bir mashhur nemis tilshunosi va feministi L.Pushdir. U nemis tilidagi "Gender-Pause"²ning asoschisi sifatida talqin qilinadi. Uning "*Das Deutsche als Männersprache*" (Nemis tili erkaklar tilidir), "*Ein Gespräch über Feminismus, Sprache und Sexualität*" (Feminizm haqida suhbat, til va jins) asarlari gender tilshunoslikning

² Gender-Pause — nemis tilida genderga mos nutq vositasidir. Bunda shaxs nomlarini bildiruvchi so'zlarni qisqartirib, tinish belgilar qo'yish yordamida ayol va erkak jinsini bir biridan farqlash mumkin bo'ladi. Masalan Schüler und Schülerinnen o'rniga Schüler*innen, Bäcker*innen, StudentInnen, Hörer_innen, Schauspieler_innen, Leser:innen. Bunda jinsga oid qo'shma so'zlarni talaffuz qilishda qisqacha tanaffus qilinadi.

Germaniyada yoyilishi uchun xizmat qilgan asarlar sifatida talqin qilinadi (21).

1990-yilning o'rtalarida lingvistik genderologiya fani rus tilshunosligiga ham kirib keldi. A. V. Kirilina o'z asarlarida rus tilshunosligida birinchi marta tildagi gender omilini o'rganuvchi ilmiy yo'nalishning umumiy nazariy asoslarini shakllantirdi. Gender masalalarini tushunishga katta hissa qo'shgan rus tilshunoslari V. N. Telia, M. S. Kolesnikova, I. I. Xaleeva, O. S. Kamenskaya, M. D. Gorodnikova, I. G. Olshanskiy va boshqalar gender yondashuvi tilda inson omilini aniqroq hisobga olishga imkon berishini ko'rsatdi.

Hozirgi vaqtda rus tilshunosligida gender tadqiqotlari jadal rivojlanmoqda va bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda: til tizimida — (lug'at, frazeologiya, onomastika) “erkaklik” va “ayollik” tushunchalarining etnik-madaniy o'ziga xosligini o'rganish (V. N. Telia, D. Ch. Malishevskaya, A. V. Artemova, G. G. Slyshkin, F. F. Fatyxova, I. V. Zyкова, A. A. Grigoryan, G. I. Kuldeeva); verbal va noverbal kommunikatsiyaning gender o'ziga xosligi (F. I. Kartashkova, I. A. Sternin, E. I. Goroshko, G. E. Kreidlin, V. V. Ganina, S. K. Taburova va boshqalar), lingvistik ongda gender stereotiplarining aks etishi (A. V. Kirilina, N. V. Ufimtseva, E. I. Goroshko, E. S. Oshchepkova), leksikografiya (M. S. Kolesnikova, I. G. Olshanskiy) (16, 8).

Rus tadqiqotchilari orasida til va nutqdagi jins masalalari A. V. Kirilina ning “*Гендер: лингвистические аспекты*” (Gender: lingvistik aspektlar), “*Гендерные исследования в лингвистике и теории коммуникации*” (Tilshunoslik va muloqot nazariyasida gender tadqiqotlari), “*Гендерные аспекты в лингвистике и теории коммуникации*” (Tilshunoslik va muloqot nazariyasida gender aspekti) va E. I. Goroshkoning “*Языковое сознание: гендерная парадигма*” (Lingvistik ong: gender paradigmasi), “*Гендерные особенности Интернета*” (Internetning gender xususiyatlari), “*Гендерная проблематика в языкознании*” (Tilshunoslikdagi gender masalalari) asarlarida batafsil yoritilgan (12, 5). Ular gender fanining paydo bo'lish tarixi, gender masalalarining asosiy nazariy va falsafiy yondashuvlarni o'rganganlar. A. V. Kirilina lingvistik genderologiya ning o'rganilishi muhim bo'lgan 6 ta muhim yo'nalishini belgilagan:

1. Sotsiallingvistik gender tadqiqotlar.
2. Feministik tilshunoslik.
3. Erkaklikni (maskulinlik) o'rganish.
4. Psixolingvistik tadqiqotlar.
5. Madaniyatlararo, lingvistik va madaniy tadqiqotlar, shu jumladan, gender submadaniyatlari gipotezasi (13, 28).

Gender tushunchasi O'zbekistonda yangi tushuncha hisoblanadi. Mamlakatimizda genderni tadqiq qilish masalalari dastlab huquq sohasida boshlangan. G. A. Matkarimovanning 2002-yilda yozilgan “*Xalqaro va milliy huquqda ayollarning gender va reproduktiv huquqlari*” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi gender tadqiqotlarining ilk namunasidir. Keyingi o'rinda pedagogika

va sotsiologiya sohalarida genderning ilmiy tadqiq qilinganligini aytib o'tish mumkin. Xususan, M. M. Tilavovaning 2009-yilda yozilgan *"O'quvchilarda gender tenglik va farqlar asosida umummehnat ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari (boshlang'ich sinf mehnat darslari misolida)"* nomzodlik dissertatsiyasi. O'zbek tilshunosligida ilk bor genderning o'rganilishi 2011-yil A. A. Morozovaning *"Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка)"* (Ayollik va erkaklik gender stereotiplarining lingvistik va kognitiv mazmuni (ispan tili misolida)) mavzusida qilgan ilmiy tadqiqotidan boshlangan (19). Shundan keyin mamlakatimiz tilshunoslari tomonidan gender aspektining qardosh, qardosh bo'lmagan tillarni chog'ishtirib va o'zbek tillari misolida ilmiy tadqiq qilinishi boshlangan. Xususan, shu yili (2011) G. I. Ergasheva o'z nomzodlik dissertatsiyasini *"Ingliz va o'zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy-tipologik tadqiqi"* mavzusida himoya qilgan. Keyinchalik, *"Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков)"* I. M. Tuxtasinov (2011), *"Гендерные признаки образа автора во французских женских автобиографических романах: композиционно-нарративный и стилистико-прагматический аспекты"* E. A. Tuchkova (2015), *"Гендерный аспект английского юмористического дискурса (языковые и социокультурные проявления)"* A. T. Knyazin (2016), *"Ingliz tili frazeologik birliklar semantikasidagi gender konsepsiyasi"* N. Z. Nasrullaeva (2016), *"Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картинах мира"* N. Z. Nasrullaeva (2018), *"Linguistic and extra-linguistic factors in the formation of gender terminology in the system of different languages"* G. I. Ergasheva (2018), *"Ingliz, italyan va o'zbek folklor matnlarida genderning til vositalarida ifodalanishi"* M. A. Abduvahobova (2019) kabi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalar (19) va G. Yusupovaning *"Nemis tili frazeologiyasida gender muammosi"* (2020) mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi mamlakatimizda gender tilshunoslikning jadal rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Mamlakatimizda nafaqat qardosh bo'lmagan tillarni qiyoslab chog'ishtirish orqali tildagi gender masalalarini o'rganish, balki o'zbek tili materiallari misolida ham tilning gender xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, *"O'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi"* F. T. Musayeva (2019), *"O'zbek tili evfemizmlarining gender xususiyatlari"* Sh. Q. Gulyamova (2020), M. Saidxonov *"Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi"* nomzodlik dissertatsiyalari (19), Sh. Sh. Qurbonovaning *"O'zbek tili badiiy matnlarning gender xususiyatlari"* (2018) mavzusidagi bitiruv malakaviy ishida tildagi gender xususiyatlar o'zbek tili misolida ochib berilgan. Bundan tashqari, Sh. Iskandarovaning *"O'zbek nutq odatining muloqot shakllari"* mavzusidagi nomzodlik

dissertatsiyasida ayol va erkaklarga xos ba'zi lingvistik farqlar va "*O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish*" (shaxs mikromaydoni) mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida jinsiy va fiziologik holat asosida farqlangan shaxs nomlari haqida, shuningdek, olimaning "*Ayollar nutqida undov so'zlarning qo'llanishi*", "*O'zbek nutq odobini ifodalovchi paralingvistik vositalar*" nomli maqolalarida ayollar nutqiga xos ba'zi lingvistik xususiyatlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Jumladan, xotin-qizlarga xos xususiyatlardan biri, ular his-hayajonlarining, holatlarining tez yuzaga chiqishidir, bu xususiyat ko'proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Ayollar nutqida dialogga moyillik nisbatan ustunroq ekanligi Sh. Iskandarova tadqiqotlarida qayd etilgan. Bundan tashqari, juda ko'plab mualliflar tomonidan xalqaro va mahalliy jurnallarda ilmiy maqolalar va konferensiyalarda tezislari soni so'nggi yillarda ancha ortganligi ushbu sohaning tilshunos olimlar tomonidan ilmiy tadqiq qilinayotganligining isbotidir. Xususan, F. Musayeva "*O'zbek tilida biologik jinsni ifodalashning leksik semantik usuli*" nomli maqolasida erkak va ayol jinsi ma'nosini ifodalovchi leksemalar haqida ma'lumot beradi. Gender lingvistikaga jiddiy e'tibor f.f.d., prof. M. Qurbonovanning tadqiqotlarida ham kuzatiladi. 2011-yilda chop etilgan "*O'zbek tilshunosligi. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyoti ko'zgusida*" nomli ilmiy maqolalar to'plamida, S.Boymirzaeva bilan hamkorlikda "*Tilshunoslikda gender tadqiqotlar*" hamda "*O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari*" Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari ilmiy to'plamida, N. Rajabova bilan hammualliflikda "*Diskursning gender xususiyatlari*" nomli ilmiy maqolalari o'rin olgan. G.Yusupovanning "*Nemis va o'zbek tillarida genderga oid frazeologizmlar masalasi*" (2018), "*Gender lingvistika va frazeologiya*" (2019), "*Genderproblem in der deutschen Phraseologie*" (2019), "*Gender lingvistikani tadqiq qilish masalalari va uning rivojlanishida ayollar harakatining roli*" (2020), "*Nemis tili frazeologiyasida "Frau" va "Mann" so'zlari qatnashgan maqollar tahlili*" (2020), "*Muloqot jarayonida genderologik xususiyatlarining aks etishi*" (2022), "*Gender aspektining tilda aks etishi*" (2022), "*Gender aspektining o'zbek va nemis tillaridagi ismlarda aks etishi*" (2023), G. S. Xotamova "*O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda qiz bola yozma nutqining harf shakllarining xususiyatlari*" (2022), Sh. K. Gulyamova "*Gender tushunchasi va uning lingvistikada tutgan o'rni*" (2019), D. R. Hojamberdiyeva "*O'zbek ayollari nutqining lingvistik tahlili*" (2022) (26), N. Xudoyorova Gender lingvistikasini o'rganishning umumiy nazariy asoslari (2021), M. M. Abdullayeva "*Tilshunoslik bo'yicha jinslarni o'rganish: tarix, zamonaviylik va istiqbollari*" (2021) (20), H.V. Ismoilova "*Xushmuomalalik kategoriyasi va hurmat konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi gender xususiyatlari*" (2022), T. Alimov "*Badiiy tarjimada gender tadqiqotlar va lingvistik yo'nalishlar*" (2021) kabi maqola va tezislari mamlakatimizda lingvistik genderologiyaga bo'lgan qiziqishning ortayotgani va ushbu soha jadal rivojlanayotganiga dalildir (26).

Haqiqatan ham tilda genderlik xususiyatlarini lingvistik tahlil qilish murakkab va shu bilan birga qiziq jarayondir. O'zbek va nemis tillari misolida ayrim gender xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar va turg'un birikmalarni tahlilga tortdik.

1. Gender xususiyatlarining leksik birliklarda ifodalanishi.

Ayol jinsini bildiruvchi leksik birliklar	Erkak jinsini bildiruvchi leksik birliklar
O'zbek tili misolida: Ayol, qiz, xola, amma, buvi, kelin, qaynona, o'gay ona, kelinoyi, ovsin, qaynsingil, qaynopa, xotin, rafiqqa, opa, singil, dugona, xonim, kampir, Nemis tili misolida: <i>die Frau, die Dame das Mädchen, die Mädel, die Tante, die Oma, die Großmutter, die Braut, die Schwiegertochter, die Stifmutter, die Schwägerin, Schwippschwägerin, die Schwester die Halbschwester (Stiefschwester), die Lebensgefährtin, die Ehefrau, die Gattin, die Partnerin, die Lebenspartnerin, die Nachbarin, die Greisin</i>	O'zbek tili misolida: erkak, yigit, o'g'il, amaki, tog'a, , buvi, bobo, buva, kuyov, boja, qaynота, qaynuka, qaynaka, pochcha, o'gay aka yoki uka, do'st, janob, chol, Nemis tili misolida: <i>der Mann, der Junge, der Knabe, der Bube, der Sohn, der Onkel, der Großvater, der Opa, der Schwiegervater, der Schwager, der Bruder, der Ehemann, der Gatte der Bräutigam, der Herr, der Ehepartner, der Lebensgefährte, der Schwippschwager, Halbbruder (Stiefbruder)</i>

Nemis va o'zbek tilidagi jinsni bildiruvchi leksik birliklar tahlilga tortilib, ular orasidagi quyidagi farqlar mavjudligi aniqlandi:

1. Artikel. Nemis tilida so'zning ayol yoki erkak jinsiga ishora qilishini bildiruvchi maxsus so'z artikel qo'llaniladi. So'z oldiga **die** artikeli qo'yilsa ayol jinsini bildiruvchi leksemalarni va **der** artikeli qo'yilsa erkak jinsiga ishora qiluvchi leksemalarni anglatadi. So'zning qaysi jinsga tegishlilikini artikeligga qarab anglab olish mumkin. Demak, otlar die yoki der artikeli bilan kelib otning jinsini aniq ko'rsatadi. Bundan tashqari, mustasno bitta *das Mädchen* so'zi mavjud. *Das Mädchen* so'zi o'zbek tiliga qiz deb tarjima qilinsa-da, ammo artikeli *das*. Buning sababi so'zga qo'shilgan **-chen** suffiksidir. Nemis tilida **-chen** suffiksi kichraytirish va erkalash qo'shimchasi hisoblanadi. Bunda ot o'zagidagi unliga *umlaut* qabul qilib, uning artikeli har doim **das** artikeli bilan kelishini talab qiladi. Shundan xulosa qilib **das Mädchen** leksemasini o'zbek tiliga qizcha deb tarjima qilish mumkin. Shu o'rinda alohida ta'kidlab aytish kerakki, nemis tilida barcha otlar o'z artikeligga ega. Bunda otlar nafaqat jonli bo'lishi va narsa predmetlarning nomlari bo'lishi ham mumkin. Lekin bizning tadqiqotimiz genderga oid bo'lganligi uchun, faqat jinsga ishora qiluvchi otlarni tanlab oldik. O'zbek tili grammatikasida artikel mavjud emasligi sababli so'zning qaysi jinsni ifodalashini faqat so'z ma'nosiga qarab aniqlash mumkin.

2. So'z ma'nolaridagi farq. Nemis va o'zbek tilidagi jinsga ishora qiluvchi leksemalarning ma'no jihatidan farqlanishi ayrim so'zlarda kuzatildi. So'z ma'nolarini tahlil qilishda hozirda nemis tilida aktiv qo'llaniluvchi 66.000 ta so'z va iboralarni o'z ichiga olgan

Langenscheidt: Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache (2008) lugʻatidan foydalanildi va quyidagilar aniqlandi.

1) Nemis tilidagi die Tante soʻzi izohli lugʻatda die Schwester der Mutter oder des Vaters oder die Ehefrau des Onkels (5, 1053) shaklida, yaʼni ota yoki onaning opasi yoki singlisi yoki amaki yoki togʻaning ayoli degan maʼnolarda kelgan. Lekin oʻzbek tilida **xola** — onaning opasi yoki singlisi, **amma** — otaning opasi yoki singlisi, kelinoyi — amaki yoki togʻaning ayolidir. Oʻzbek tilidagi **xola**, **amma**, **kelinoyi** kabi uchta leksema nemis tilida bitta die Tante leksemasi orqali ifodalanadi. Oʻzbek tilidagi xola leksemasining muqobil varianti nemis tilida oldinlari **die Muhme** (veraltet: Tante, die die Schwester der Mutter ist) leksemasi orqali ifodalangan, lekin hozirda u eskirgan va isteʼmoldan chiqqan. *Heute kommt die Muhme zu Besuch.*

2) Der Onkel leksemasi nemis tilida quyidagicha izohlanadi: der Onkel — der Bruder der Mutter oder des Vaters, der Ehemann der Tante. Ona yoki otaning akasi yoki ukasi, xola yoki ammaning eri. Oʻzbek tilidagi **togʻa**, **amaki** va **pochcha** soʻzlari maʼnosi nemis tilida **der Onkel** leksemasi orqali beriladi. Lekin nemis tilida hozirda eskirgan **der Oheim**, **der Ohm** leksemalari mavjud boʻlgan va maʼnosi oʻzbek tilidagi togʻa leksemasiga teng. *Der Oheim (veraltet) der Bruder der Mutter.* Lekin hozirda isteʼmoldan chiqqan va ularning oʻrnida der Onkel leksemasi qoʻllaniladi.

3) Oʻzbek tilidagi **jiyan** leksemasi orqali jinsni aniqlash qiyin. Masalan: **jiyanim bu yil 1-sinfga chiqadi**. gapidagi jiyan leksemasi ayol yoki erkakni ifodalayotganligini anglash qiyin. Faqatgina matn kontekstidan qaysi jinsga tegishlilikini aniqlash mumkin. **Bu opamning qizi Bibisora. Jiyanim bu yil 1-sinfga chiqadi.** Yuqoridagi gapdan keyingina jiyan leksemasi qiz bolaga ishora qilayotganligini tushunish mumkin. Lekin nemis tilda jiyan leksemasi qaysi jinsga tegishlilikini aniq anglash mumkin. Ayol yoki erkak jinsini bildiruvchi jiyan leksemasi alohida soʻzlar orqali ifodalanadi.

Nemis tilida	Oʻzbek tilida
1. die Nichte- Tochter der Schwester oder des Bruders. 2. Im weiteren Sinne auch Tochter des Schwagers oder Schwägersin. 3. Tochter der Cousine oder des Cousins	jiyan
2. der Neffe- 1. Sohn der Schwester oder des Bruders. 2. Im weiteren Sinne auch Sohn des Schwagers oder Schwägersin. 3. Sohn der Cousine oder des Cousins	jiyan

Nemis tilidagi opa-singil, aka-ukaning qizi yoki ogʻli, qaynuka-qaynaka, qaynsingil-qaynopening oʻgʻli yoki qizi, amakivachcha, togʻavachcha, xolavachchaning oʻgʻli yoki qizi barchasi oʻzbek tilida bitta leksema **jiyan** leksemasi yordamida ifodalanishi aniqlandi.

Tilda turgʻun birikmalar alohida oʻringa ega va ularda genderning aks etishi koʻp holatlarda kuzatiladi. Ayniqsa, maqollarda ayol va erkak obrazi yorqin ifodalanadi. Buni nemis va oʻzbek tillaridagi maqollar yordamida koʻrib chiqdik. Oʻzbek tilidagi *beva*

*xotinga Buxorodan it hurar, besh bola ustiga borsang bor, kundosh ustiga borma, elakka borgan ayolning ellik og'iz gapi bor, ayolning husni pardozida emas, aqlida, ayolning tilini ayol bilar, ayolning sarishtasi, ro'zg'orning farishtasi, o'g'ri do'qi bilan qo'rqitar, yomon ayol — yig'isi bilan, erta turgan yigitning bir rizqi ortiq, erta turgan ayolning bir ishi ortiq, ayol so'm qilar, erkak — chaqa, erni er qiladigan ham, qaro yer qiladigan ham xotin, yomon erkak to'y buzar, yomon xotin — uy, bir kelin oldim, o'tirdim, ikki kelin oldim, tik turdim, uch kelin oldim yugurdim, bir qizga yetti qo'shni — ota-ona, bir qinga ikki pichoq sig'mas, bir uyga — ikk xotin kabi maqollarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan fazilatlar, urf-odatlar o'z aksini topgan. Nemis tilida ham genderga oid maqollar talaygina. 1. *Ein Mann, ein Wort; eine Frau ein Wörterbuch* — erkak kishi bitta so'z, ayol lug'atdir. 2. *Ein hässlicher Mann findet eine schöne Frau* — xunuk kishi chiroyli ayolni topadi. 3. *Der Mann ist der Kopf, aber die Frau bewegt ihn* — erkak kishi bosh, lekin uni ayol boshqaradi. 4. *Wenn ein Mann heiratet, fängt der Ärger an; wenn er stirbt, hört der Ärger auf* — Erkak uylansa baxtsizliklar boshlanadi va u o'lganda to'xtaydi. 5. *Drei Dinge treiben einen Mann aus seinem Haus — Rauch, Regen und ein zänkisches Weib* — uchta narsa erkakni uyidan haydab chiqaradi — tutun, yomg'ir va janjalkash xotin, 6. *Frauen sind die Schlaunen* — ayollar ayyorlar, 7. *Die Frau ist wie die Waage, wo sie hängt, kippt sie über* — Ayol kishi xuddi tarozi misoli bo'ladi, qaysi taraf og'ir kelsa, shu tarafga og'adi, 7. *Die beste Frau ist die, die am wenigsten spricht* — Eng yaxshi ayol — eng kam so'zlovchi ayoldir (18, 76) kabi maqollar misolida nemis xalqiga xos bo'lgan, xalq og'zaki ijodi orqali ayol va erkak haqidagi qarashlar asrlar osha kelayotgan o'y-fikrlar o'z aksini topadi.*

Xulosa. Ushbu tadqiqot ishimizdan quyidagilarni xulosa qilib aytish mumkin:

1. “Gender” tushunchasi O'zbekistonda yangi tushunchadir.
2. “Gender” tushunchasi fanga insonning biologik jinsidan farqlanuvchi ijtimoiy jinsini bildirish uchun kiritilgan.
3. Til va jins bir-biriga bog'liq ekanligi haqidagi faraz antik davrga borib taqaladi.
4. Til va jinsni tadqiq qilgan dastlabki tadqiqotchilarning barchasi bir xil xulosaga kelishdi: erkaklar va ayollar asosan bir xil tilda gaplashishadi, lekin uni boshqacha ishlatishadi, bu jinsga xos sotsializatsiya, turli vazifalar va qiziqishlar va boshqa narsalardan kelib chiqishi mumkin.
5. Yevropada bo'lib o'tgan ayollar qo'zg'alonlari lingvistik genderologiyaning shakllanishidagi asosiy omillardan biridir.
6. Raymond Bretonning 1665-yilda Parij shahrida nashr qilingan “Dictionnaire Caraïbe-français” lug'atida ayollar va erkaklar ishlatadigan so'zlarni alohida ikki shaklga ajratilgan holda ko'rsatgan va bizning fikrimizcha, bu ayol va erkak tili haqidagi dastlabki tadqiqotdir.

7. Lingvistik genderologiya fani g'arb davlatlarida paydo bo'lgan va jadal rivojlangan, ammo mamlakatimizda endigina rivojlanayotgan zamonaviy tilshunoslikning bir yo'nalishidir.

8. Nemis va o'zbek tillarida genderga oid leksik birliklar grammatik va ma'no jihatidan bir-biridan farq qiladi.

9. Jamiyat tomonidan tan olingan ayol va erkak obrazi nemis tilida ham, o'zbek tilida ham xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish maqollarda o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahrens N. Frauensprache oder Männersprache? Soziolinguistische Erkenntnisse zum geschlechtspezifischen Sprach- und Kommunikationsverhalten. — Norderstedt: GRIN Verlag, 2006. — 28 p.
2. Coates J. Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language. — New York: Routledge, 2013. — 262 p.
3. Gary J. Men Are from Mars, Women Are from. — New York: Harper Collins, 1992. — 368 p.
4. Gill R. Gender and the media. — Cambridge: Polity Press, 2007. — 296 p.
5. Glötz D., Günther H., Wellmann H. Langenscheidt: Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. — Berlin und München: Clausen&Bosse, 2008. — 1037 s.
6. Henigin L. Genderspezifisches Sprechverhalten. Sind weibliche Figuren in Animationsfilmen das linguistisch unterlegene und höfliche Geschlecht. — GRIN Verlag, 2016. — 42 s.
7. Jespersen O. Language: Its Nature, Development and Origin. — London: Allen and Unwin, 1922. — 443 p.
8. Key M.R. Male and Female Language. — New York: The Scarecrow Press, 1975. — 200 p.
9. Lakoff R. Language and Woman's Place. — New York: Harper and Row, 1975. — 83 p.
10. Nave-Herz R. Die Geschichte der Frauenbewegung in Deutschland. — Hannover: CW Niemeyer Druck GmbH, 1997. — 79 s.
11. Sapir E. Male and Female Speech in Yama, in: Sapir, Edward: Selected Writings in Language, Culture and Personality. — Berkeley (Calif.): University of California Press, 1929. — 642 p.
12. Гаврилова Ю.Н. Конструирование гендера в речи мужчин и женщин на материале итальянского телевизионного дискурса. — Санкт-Петербург, 2018. — 56 с.
13. Голенищева Е.М. Гендерные особенности идиостиля автора (на материале современной британской прозы). — Екатеринбург, 2016. — 73 с.
14. Горюнова К. В. Языковые гендерные особенности комментариев в сети «ВКонтакте». — Челябинск, 2019. — 53 с.

15. Гулямова Ш. Гендер тушунчаси ва унинг лингвистикада тутган ўрни // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. — 2019. — № 2 (74). — В. 107–114.
16. Зиновьева Е. С. Языковые механизмы конструирования маскулинности и феминности в дискурсе глянцевого журналов (на материале английского и русского языков). — Ярославль, 2018. — 235 с.
17. Кирилина А.В. Гендер: Лингвистические аспекты. — Москва: Институт социологии РАН, 1999. — 189 с.
18. Юсупова Г. Немис тили фразеологиясида гендер муаммоси // Магистрлик диссертацияси. — Тошкент: ЎзМУ, 2020. — 91 б.
19. <http://diss.natlib.uz/ru>
20. <https://conferencepublication.com>
21. https://de.wikipedia.org/wiki/Luise_F._Pusch
22. https://de.wikipedia.org/wiki/Robin_Lakoff
23. https://en.wikipedia.org/wiki/Margaret_Mead
24. https://en.wikipedia.org/wiki/Senta_Trömel
25. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi \(2000-2005\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika,_O'zbekiston_milliy_ensiklopediyasi_(2000-2005))
26. <https://cyberleninka.ru/article>
27. <https://lex.uz/docs/-4494849>

References

1. Ahrens N. *Frauensprache oder Mennersprache? Soziolinguistische Erkenntnisse zum geschlechtsspezifischen Sprach- und Kommunikationsverhalten*, GRIN Verlag, 2006, 28 p.
2. Coates J. *Women, Men and Language: A Sociolinguistic Account of Gender Differences in Language*, New York: Routledge, 2013, 262 p.
3. Gary J. *Men Are from Mars, Women Are from Venus*, New York: Harper Collins, 1992, 368 p.
4. Gill R. *Gender and the media*, Cambridge: Polity Press, 2007, 296 p.
5. Glotz D., Gunther H., Wellmann H. *Langenscheidt: Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache*, Berlin und München: Clausen&Bosse, 2008, 1037 s.
6. Henigin L. *Genderspezifisches Sprechverhalten. Sind weibliche Figuren in Animationsfilmen das linguistisch unterlegene und hofliche Geschlecht*, GRIN Verlag, 2016, 42 s.
7. Jespersen O. *Language: Its Nature, Development and Origin*, London: Allen and Unwin, 1922, 443 p.
8. Key M.R. *Male and Female Language*, New York: The Scarecrow Press, 1975, 200 p.
9. Lakoff R. *Language and Woman's Place*, New York: Harper and Row, 1975, 83 p.
10. Nave-Herz R. *Die Geschichte der Frauenbewegung in Deutschland*, Hannover: CW Niemeyer Druck GmbH, 1997, 79 s.

11. Sapir E. *Male and Female Speech in Yama*, in: Sapir, Edward: *Selected Writings in Language, Culture and Personality*, Berkeley (Calif.): University of California Press, 1929, 642 p.
12. Gavrilova I.U.N. *Konstruirovaniye gendera v rechi muzhchin i zhenshchin na materiale italiyskogo televizionnogo diskursa* (The construction of gender in the speech of men and women on the material of the Italian television discourse), Sankt-Peterburg, 2018, 56 p.
13. Golenishcheva E.M. *Gendernye osobennosti idiosintila avtora na materiale sovremennoi britanskoi prozy* (Gender features of the author's idiosyncrasy based on the material of modern British prose), Ekaterinburg, 2016, 73 p.
14. Gorunova K.V. *Iazykovye gendernye osobennosti kommentariyev v seti vkontakte* (Linguistic gender features of comments on the vkontakte network), Cheliabinsk, 2019, 53 p.
15. Guliamova Sh. *Bukhoro davlat universiteti ilmiy akhboroti*, 2019, No. 2 (74), pp. 107–114.
16. Zinoveva E. S. *Iazykovye mekhanizmy konstruirovaniia maskulinnosti i feminnosti v diskurse gliantsevykh zhurnalov na materiale angliyskogo i russkogo iazykov* (Linguistic mechanisms of masculinity and femininity construction in the discourse of glossy magazines (based on the material of English and Russian)), IArosavl: 2018, 235 p.
17. Kirilina A.V. *Gender Lingvisticheskie aspekty* (Gender Linguistic aspects), Moscow: Institut sotsiologii RAN, 1999, 189 p.
18. Yusupova G. *Nemis tili frazeologiyasida gender muammosi (magistrlik dissertatsiyasi)* (Gender problem in German phraseology (master's thesis)), Tashkent: UzMU, 2020, 91 p.
19. <http://diss.natlib.uz/ru>
20. <https://conferencepublication.com>
21. https://de.wikipedia.org/wiki/Luise_F._Pusch
22. https://de.wikipedia.org/wiki/Robin_Lakoff
23. https://en.wikipedia.org/wiki/Margaret_Mead
24. https://en.wikipedia.org/wiki/Senta_Trömel
25. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sotsiolingvistika>, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
26. <https://cyberleninka.ru/article>
27. <https://lex.uz/docs/-4494849>